
SUV RESURSLARIDAN OQILONA FOYDALANISH – DOLZARB VAZIFA

Bugun “Xonariq saxovati” MMTP hududidagi “Axmatjon Muhammad Toxir” fermer ho‘jaligida “Qishloq xo‘jaligida yer va suv resurslaridan samarali foydalanish” mavzusida seminar bo‘lib o‘tdi.

Unda sektor rahbarlari, qishloq va suv xo‘jaligi sohasi mas‘ul xodimlari, klaster va fermer xo‘jaliklari rahbarlari qatnashdilar.

Dastlab seminarda viloyat hokimining qishloq va suv xo‘jaligi masalalari bo‘yicha o‘rinbosari Alibek Tursunov mamlakatimizda qishloq xo‘jaligi sohasida mavjud suv resurslaridan oqilona foydalanish orqali hosildorlikni oshirishda amalga oshirilayotgan vazifalar, suv tejevchi texnologiyalarni joriy etishni kengaytirish va bu borada davlat tomonidan beriladigan subsidiya hamda boshqa imtiyozlar hususida to‘xtalib o‘tdi.

Seminar davomida bugungi kundagi dolzarb masalalardan biri — yer resurslaridan unumli foydalanish, tuproq hosildorligini oshirish, sug‘orish ishlarida tejamkor texnologiyalarni joriy etish masalalari muhokama qilindi.

2023-04-28 18:03:41